

ABDULHAMID CHO'LPON SHE'RIYATIDA VATANPARVARLIK G'OYALARI

Hasanova Shahnoza

FarDU o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Maxmidjonov Shoxruxbek

FarDU o'qtuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari tahlilga tortilgan. Shoirning she'riyatining o'ziga xos poetik olami, undagi g'oyalar maqolamizda yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *She'riyati, lirik qahramon, ma'rifatparvarlik, erksevarlik, insonparvarlik, jaholat, xurofot, obraz.*

Аннотация. *В этой статье к анализу были привлечены патриотические, просветительские идеи в поэзии Абдулхамида Чулпана. Своеобразный поэтический мир поэзии поэта, идеи в нем освещены в нашей статье.*

Ключевые слова. *Поэзия, лирик герой, просвещение, мужественность, гуманизм, невежество, суеверие, образ.*

Annotation. *In this article, the ideas of patriotism, Enlightenment were drawn into analysis in Abdulhamid Chulpan's poetry. The specific poetic world of the poet's poetry, the ideas in it are covered in our article.*

Keywords. *Poetry, lyric hero, enlightenment, masculinity, humanity, ignorance, prejudice, image.*

Har bir ulug' adib yoki san'atkorning hayot yo'li, shaxsiyati, faqat uning umri taqdirigina emas, balki u mansub bo'lgan millat, yashagan davr bilan chambarchas bog'liq. Abdulhamid Cho'lpon misolida u yashagan davr muhiti bilan bevosita tanishishimiz mumkin.

Ma'lumki, Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyotida shoir sifatida o'zining milliy tuyg'ular mavj urgan misralari orqali adabiyotga kirib keldi. Tinimsiz she'rlar yozdi. Yangilikka tashna she'r mahublarining qalbi yangicha ohangda yangradi. U ko'plab taxalluslar bilan ijod qildi. Ma'lumki, Cho'lpon "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" kabi taxalluslar bilan ijod qilgan. Uning tug'ilgan yili haqida ko'plab bahs-munozaralar mavjud. Jumladan, Cho'lpon bilan hamkor va do'st bo'lgan Vasiliy Yan uning tavalludini 1897-yil deb ko'rsatadi. Biroq, adabiyotshunos olim



Ozod Sharafiddinov Cho'lpon 1893-yilda Andijonda savdogar oilasida tug'ilgan deb yozadi. Shuningdek, utafakkirning singlisi Foiqa Sulaymon qizining o'g'li O'.Mirzaxo'jaev "Onamizning guvohlik berishicha, akasi Cho'lpon 1898-yilda tug'ilgan, uning yili sak - it bo'lgan. Andijon zilzilasi paytida (1902 yil), deb eslaydi onamiz, – tog'ang to'rt yashar bola ekan. Ammo hujjatlarda nechanchi yil deb yozilgani menga ma'lum emas", degan ma'lumotni yozadi. Agar Foiqa Sulaymon qizining 1908-yili tug'ilganini, akasi dunyoga kelganda o'zi ancha yosh bo'lganini e'tiborga olsak, Cho'lponning tug'ilgan yili haqidagi ma'lumotlar nechog'li aniq ekanligi haqida jiddiy o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

Uning ijodiga to'xtaladigan bo'lsak, 16 yoshida ijod qila boshladi. U yoshligidan sharq adabiyotini, ayniqsa, fors, turk adabiyotini shu qadar sevib o'qidiki, shu mehri sabab butun umri davomida Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Tavfiq, Fitrat, Nomiq Kamol, Abdulla To'qay kabi buyuk so'z san'atkorlari asarlarini mutoala qilishdan, yod olishdan to'xtamaydi. Shoir yosh bo'lishiga qaramay, nafaqat ijodi balki amaliy faoliyati bilan hayotda ma'rifat nurlarini sochib yurdi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni ayta olamizki, Cho'lpon ijodida, she'rlarida insonni jaholat, xurofot, bilimsizlik, erksizlik botqog'idan olib o'tishga bel bog'lagan jonkuyar shoir sifatida namoyon bo'ladi. Misol qilib uning quyidagi she'rini keltirib o'tishimiz mumkin:

Oydin kechalarda ko'kka ko'z tikib,
Yorug' yulduzlardan sevgi kutdim men.
Har yulduz tig'ida rux bilan kutib,
Uzun tunlar bo'yi kutib, o'tdim men.

Bu Cho'lponning "Men ham sevaman" she'ri hisoblanib, shoirning eng mashhur she'rlaridan biri bo'lgan "Go'zal" she'rining boshlanishiga o'xshab ketadi. Cho'lponning sevimli va doimiy go'zallik timsoli bo'lgan obrazlari bor: yulduz, oy, kun va tun, daryo, tog' va buloqlar, maysa, dengiz, yaylovlar, yaproq, kapalak va qor uchqunlari hisoblanadi. Bu obrazlarning barchasi birin-ketin yo shoir yuragida tug'ilgan hasrat va erkinlik armonini, yo mash'um daqiqalardagi iztirob, o'ksinish yoki tug'yon charxpalagini, yo sokin, orombaxsh lazzat shavqini ifoda etadi. Tabiat ne'matlari birgalikda shoir falsafiy idealini, nafosat tuyg'ularini belgilaydi. Yuqoridagi misralarni huddi shu fikrlarga da'lil sifatida keltirdik. Bu she'rning ilk misralaridan shoir sevgi kutaverib, toliqqan inson sifatida ko'rinsada, she'rning oxirgi misralarida uning fikri zikri o'lka, xalq, yurt istiqboli, yurtdoshlari taqdiri haqida ekanligini mana shu misralar orqali yaqqol namoyon bo'ladi:

Ko'nglim quruq emas, yana sevgi bor,



Faqat bu sevgida aldanmish yo'qdir.

Shoirning qalbida yana sevgi bor, faqat bu sevgi yurt, vatan sevgisiga almashdi. Endi shoir qalbidagi bor sevgisini yurt istiqboli uchun sarf qiladi. Ya'ni shoir sevgisida endi aldanish yo'q, u haqiqiy sevgini topdi. Ya'ni, u yurt ishqi edi.

Endi har nafasda yana kuyamen,
Faqat Majnun bo'lib elni sevaman
Unga hurmat bilan bo'yin egamen,
Boshimni u uchun dorga qo'yamen.

Yuqoridagi misralar qanchalar o'lmas, betakror misralar desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu misralarni o'qigan har bir o'quvchining qalbida bevosita vatanparvarlik g'oyalari yanada jo'sh urib ketadi, shoirning Vatanga bo'lgan muhabbati bu misralarni o'qigan har bir insonga yuqadi. Ya'ni Cho'lponning vatanga muhabbati jam bo'lgan bu misralar bevosita o'quvchi qalbini titratmasdan iloji yo'q.

Bu misralarda shoir ko'chma ma'noda aytadigan bo'lsak, yurt ozodligi yo'lida yonishga tayyor inson sifatida gavdalanadi. Ya'ni shoir yurtini ozod ko'rish uchun boshini hattoki, dorga qo'yishga tayyor ekanligini yuqoridagi misralardan bilib olamiz. Bu she'rda shoirning ezilgan, xo'rlangan, vayronaga aylangan o'lkaning ijtimoiy muhiti, o'z xalqi va o'lkasini ozod ko'rish istagi, mustaqillik orzulari aks etgan. Cho'lponning insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va erksevarlik g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarashi bu she'r orqali namoyon etadi.

Darhaqiqat, "Mutafakkir Cho'lponning buyukligi va buyuk Cho'lponning Mutafakkirligi xuddi ana shu oddiy va beminnat izhori dilda edi. U mana shu muhabbat tufayli boshini dorga qo'yib berdi. Majnun bo'lib elni sevgani, muhabbatdan bo'lak uning hech narsasi qolmagani uchun, el deb, qadrdon o'lka deb har nafasda kuyub yurgani uchun, Vatani Ka'ba sanab, unga sajda qilib, muhabbat tufayli boshini dorga qo'yib berdi. Majnun bo'lib elni sevgani, bo'yin eggani uchun pok vijdonli ko'kragini razolat o'qiga tutib berdi"⁵⁹

Xulosa qilib aytganda, Cho'lponning boy badiiyati xalqimiz tarixi, taqdiri va an'analari bilan uzviy bog'liq. Mutafakkirning lirik qahramoni ayrim she'rlarda xalq bilan yonma-yon turib, kuyib yonadi. Ayrim o'rinlarda o'lka osmonida to'plangan qora ko'lankalarni chaqmoq yanglig' tilka-pora qilishga tayyor obraz sifatida gavdalanadi. Bir so'z bilan aytganda Cho'lpon she'riyatida hayot, go'zallik, erk va ozodlik singari orzularni ifodalaydi. Uning she'riyatida chinakam poetik ruh va olijanob inson orzu-umidlari ini'kos etadi.

⁵⁹ Maxmudov T.Zainiddinova Z.Cho'lpon- romantik shoirdir.// San' at.- Toshkent ,1991 N 10.4-b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Shukriy.Cho'lpon- Cho'lpondir//Ko'mak.-Berlin 1923. N5 .19- 20 b.
2. Bahodir Karimov.Cho'lpon va tanqid.// Adabiyot .2004.3- b
3. Maxmudov T. Zainiddinova Z. Cho'lpon - romantik shoirdir. San'at. - Toshkent, 1991 N 10.46- b.
4. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. *Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar*, 2(6), 1231-1235.
5. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 520-524.
6. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (6), 520-524.
7. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. *Modern Science and Research*, 2(6), 1231-1235.
8. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
9. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
11. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM"ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. *Nazariy Va Amaliy Fan*, (5), 590-592.
12. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. *Toshkent: Akademnashr*.

